



**(*Taraxacum albidum*) ASTERACEAE TURINING O'ZIGA XOS  
HUSUSIYATLARI VA UNING TARQALISHI**

*Umaraliyeva Shodiyona Farhodjon qizi*

*Namangan davlat universiteti,*

*Biologiya ta'lif yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

*Email: [shodiyonaumaraliyeva738@gmail.com](mailto:shodiyonaumaraliyeva738@gmail.com),*

*Tel: +9989938910413*

**Abstract.** This article discusses the origin of *Taraxacum albidum*, a species belonging to the *Taraxacum* genus within the Asteraceae family, *Taraxacum albidum* highlighting its distinct morphological characteristics that set it apart from other species, as well as its unique medicinal properties. Based on data presented in herbarium specimens, the article also outlines the dynamics of the species over the years.

**Keywords:** *Taraxacum albidum, TASH, herbarium,*

**KIRISH.** *Taraxacum* L. turkumi Asteraceae oilasining yirik turkumlaridan biri sanaladi. *Taraxacum* turkumi Yevropa, O'rta Osiyo va Shimoliy Amerikada keng tarqalgan (2-rasm). So'ngi yillarda O'zbekiston hududida *Taraxacum* turkumi ustida qator zamonaviy tadqiqotlar olib borilmoqda. Turkum morfologik jihatdan kam o'r ganilgan taksonlar qatoriga kiradi va taksonomiysi, geografiyasi, morfologiyasi bo'yicha dala tadqiqotlarini olib borish va molekulyar tahlillarini amalga oshirish bo'yicha yangicha qarashlarni talab etadi [1].

*Taraxacum* turkumini tarqalish arealiga ko'ra 2 800 dan ortiq turga ega [2]. Plants of the World Online xalqaro ma'lumotlar bazasida yevropada 1 000 turi, O'rta Osiyo florasi ro'yxatida 600 turi [3], O'zbekiston florasida esa 30 dan ortiq turi mavjud [4,5].

*Taraxacum* jinsiga mansub *Taraxacum albidum* o‘ziga hos harekteristikasi bilan ajralib turadi. Bu turning to‘liq kimyoviy sifatlari boshqa jins vakillariga nisbatan juda kam bo‘lib, O‘zbekiston hududida keng uchraydigan turlardan biridir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.**

Turning manzillarini aniqlashda Global Biodiversity Information Facility (GBIF, <https://www.gbif.org/>), Moskva (<https://plant.depo.msu.ru>) virtual gerbariysi hamda <https://www.plantarium.ru> platformasidagi ma’lumotlarga tayangan holda amalga oshirildi.

Tadqiqot metodologiyasi usuliga ko‘ra ushbu jinsning uchrash areali boshqa turlarga nisbatan yuqori bo‘lib, Yaponiya hududlarida keng tarqalgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Tadqiqotlar metodologiyasi tahlillari ma’lumotlar matritsasi bo‘yicha *Taraxacum albidum* o‘sish shakli: poyasiz (rozet hosil qiluvchi) o‘t, bo‘yi: odatda 10-40sm gacha o‘sadi. Barglari: uzun, tishli yoki chuqur parrakli, yashil rangda bo‘lib, sirtqi tomoni siliq yoki biroz tukli. Gullari oq rangda, markazi sariq rangda, gul boshchasi 3-5 sm markaziy qismida joylashgan. Asosan aprel–may oylarida gullaydi[6]. (1-rasm)



### **(1 va 2-rasm) *Taraxacum albidum* jinsining morfolagik ko‘rinishi va tarqalishi**

Mazkur tahlillar shuni ko‘rsatdiki *Taraxacum* oilasiga kiruvchi boshqa turlardan *Taraxacum albidum* sezilarli darajada ajralib turadi. Uning morfologik



belgilar tomonidan nazar solsak, ildizli, ko‘p yillik, chuqur bo‘lakli barglari bazal rozetni hosil qildi, yiliga bir marta gullaydi. [8]. (1-rasm)

*Taraxacum albidium* boshqa tur vakillaridan tarqalish hududiga ko‘ra ham ajralib turadi. Dengiz sathidan 2000 m balandlikda o‘rmon-dasht zonasining yuqori qismida, toshli yonbag‘irlarda va tog‘li yerlarda, mo‘tadil iqlim mintaqalarida uchraydi. Uning hozirgi kundagi uchrash areali keng qamrovda Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, O‘zbekiston, va Qozog‘iston hududlari hisoblanadi[9].

**XULOSA.** Aytish mumkinki mazkur tur kelib chiqishida ko‘plab morfologik tabaqlanishni bosib o‘tgan. *Taraxacum albidium* tog‘li va quruq iqlimga chidamli o‘simlik bo‘lib, asosan qumloq yoki toshloq tuproqlarda, ochiq yon bag‘irlarda yoki butazorlar orasida o‘sadi. An’anaviy tabobatda jiggarning yallig‘lanishi, teri, buyrak va o‘t pufak kasalliklarida, imunitetni mustahkamlashda va asabni tinchlantirishda keng qo‘llaniladi.

O‘simlik kimyoviy tarkibi jihatidan boshqa turlardan ajralib turadi, uning dorivorlik hususiyatlari juda yuqori bo‘lib, ildizi va barglarida taraxasterol, inulin, bitter glikozidlar, A, C, K va B vitaminlar, kalsiy, kaliy, temir kabi minerallar va boshqa bir qator moddalar bor, hozirgi kunda ko‘plab iste’mol qiladigan dorilarimiz tarkibida ham o‘rin olgan.

*Taraxacum albidium* shu bilan birga ildizidan turli hil shifobaxsh choy va damlamalar tayyorlaniladi.

*Taraxacum* va uning tarkibiga kiruvchi boshqa turlarni keng plantatsiya qilish orqali tabobatda yuqori natijalarga erishish imkoniyati beradi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tojibaev K.Sh. va boshq. (2020). O‘zbekiston florasi dagi dorivor o‘simliklar. – FAN nashriyoti.
2. Yakugaku Zasshi (Journal of Japanese Pharmacology), 2012. – On the hepatoprotective effect of *Taraxacum albidum*.
3. Uddin, S. et al. (2010). A review on pharmacological and phytochemical profile of genus *Taraxacum*. – International Journal of Pharmacognosy.
4. Dahlstedt, G. (1907). “Nova Acta Regiae Societatis Scientiarum Upsaliensis”.



5. Takahashi, H. et al. (1995). "Apomixis in *Taraxacum albidum* and its reproductive biology." *Plant Species Biology*, 10(3): 215–222.
6. Flora of Japan (Ohwi, 1965)
7. Plants of the World Online (POWO) – <https://powo.science.kew.org>
8. Flora Uzbekistana. T.1–10. O‘zR FA, Toshkent.
9. Tojibaev K. (2020). *Taraxacum turlarining balandlikka moslashuvi*. – Uzbek Journal of Botany.
10. Poljakov P.P. (1957). Taraxacum genus in the flora of the USSR.
11. <https://inaturalist.lu/taxa/451021-Taraxacum-albidum>